

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2025 № 3-4 (30-31)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2025 № 3-4 (30-31)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” International journal

<p>Tahrir kengashi Abdildina, R.J. - Qozog'iston FA akademigi, f.f.d., professor Mamedzade, I.R. - Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor Skarantino, L.M. - Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi prezidenti, DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. - Rossiya FA akademigi, Rossiya FA “Falsafa” instituti direktori, Rossiya FA prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. - Qozog'iston FA muxbir a'zosi, f.f.d., professor Tsuy Veyxan - Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. - Rossiya FA Falsafa institute professori, f.f.d., (Rossiya)</p> <p>Muassislar: Mirzo Ulugbek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti O'z.RV M huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers МЧЖ Elc.uz</p> <p style="text-align: center;">Ro'yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.</p>	<p>Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. - f.f.d., professor (O'zbekiston) Bosh muharrir o'rinbosari: Aslanova R. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas'ul muharrir: Muhamedova Z.M. – f.f.d., prof. (O'zbekiston) Tahrir hay'ati: Allahyarova, T., - f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., - s.f.d., professor (Qozog'iston) Abasov, A.S. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Buzarinejad, Y. - PhD, dotsent, Tehron universiteti Alborz fakulteti dekani; (Eron) B.K. Santosh Kukreja, - DS professor (Hindiston) Bilalov, M.I., - f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., - f.f.d., professor (Qozog'iston) Kerimov E. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Gezalov, A.A., - f.f.n., professor (Rossiya) Olatunji Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Pardayev S.P. – falsafa doctori PhD, (O'zbekiston) Tulenova G. J - f.f.d., professor (O'zbekiston) Tesdelen, Vefa, - f.f.d., professor (Turkiya) To'rayev, B.O., - f.f.d., professor (O'zbekiston) Tyukmaeva A.M. – falsafa doctori PhD (O'zbekiston) Kurmangalieva, G. K., - f.f.d., professor (Qozog'iston) Qurbonova L.A. – DSc, dotsent (O'zbekiston) Xudoydodzoda F.B., - f.f.d., professor (Tojikiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O'zbekiston) Xudoyberganov R. – DSc, dotsent (O'zbekiston) Mahmadizoda N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. Hakimoglu - PhD filos., professor (Turkiya) Paxruddinov, Sh.I.- s.f.d., professor (O'zbekiston) Sergeev, M.Y., - professor (AQSH) Sagikizi A.- f.f.d., professor (Qozog'iston) Urmanbetova, J.K., - f.f.d., professor (Qirg'iziston) Chjan Baychun, - f.f.d., professor (Xitoy) Shadmonov, Q., - f.f.d., professor (O'zbekiston) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg'iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa doctori PhD, dotsent (O'zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. (O'zbekiston) Po'latov A. (O'zbekiston)</p>
--	--

MUNDARIJA
SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjanovich	RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIIY ONG DINAMIKASI	9-19
Qosimova Nazira Omurqulovna	GARMONIYA VA HAMKORLIK: DIPLOMATIYANING AYOLLAR O‘LCHOVI	20-30
Rasulov Rustambek Odilovich	AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA SIYOSIIY MAFKURALAR TARG‘IBOT METODOLOGIYALARINING O‘ZGARUVCHALIGI	31-37
Shayildayeva Asel Kokoyevna	XALQ DIPLOMATIYASIDA AYOLLAR YETAKCHILIGI: MAS‘ULIYAT VA G‘AMXO‘RLIK FALSAFASI TA‘LIM VA FAN FALSAFASI	38-45
Qurbonova Lolaxon Abduxadimovna	ELITAR TA‘LIM MODELLARIGA SUN‘IY INTELLEKTNING INTELLEKTUAL VA MA‘NAVIY TA‘SIRI	46-53
Xaydarova Aqida Xurramovna	TANLANISH MEXANIZMI VA EPISTEMOLOGIK RATSIOANALLIK DIALEKTIKASI	54-60
Usmonov Muxriddin Abdimuradovich	IDROKNING TAFAKKUR USLUBINING ONTOLOGIK POYDEVORI SIFATIDAGI MOHIYATI VA UNING ONG - BORLIQ O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TUSHUNISHDAGI AHAMIYATI	61-75
Shermuhamedova Niginaxon Arslonovna	SINERGETIK VA DIALEKTIK TAFAKKUR VA ULARNING MURAKKAB TIZIMLARNING RIVOJLANISHINI TUSHUNISHDA ROLI FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI	76-85
Pardayev Sultonmurod	DUNYONING ILMIY MANZARASI EVOLYUTSIYASINING KLASSIK, NOKLASSIK VA POSTNOKLASSIK DAVRLARI VA ULARNING O‘ZARO TA‘SIRI	86-96
Qodirov Javlonbek Abdusattor o‘g‘li	ZAMONAVIIY FALSAFADA ONGGA OID POSTMODERN VA NEYROFALSAFA SOHALARIDAGI QARASHLAR DINAMIKASI	97-104
Sapayev Valisher Odilbek o‘g‘li	SUN‘IY INTELLEKT FENOMENINING IJTIMOIIY JARAYONLAR BILAN BOG‘LIQ JIHLTLARI VA UNING MAFKURAVIIY AHAMIYATI DUNYO MADANIYATI VA DINIIY AN‘ANALAR	105-116
Alaje, Olubunmi Oyebola	FATOU FANNY-CISSÉ‘NING “MADAME LA PRÉSIDENTE” ASARIDA MISTITSIZM, GENDER ASOSIDAGI KUCH VA YETAKCHILIKNING ETNOLINGVISTIK TASVIRI	117-132
Qudratov Siroj Xolmatovich	MILLIIY VA GLOBAL TAJRIBALAR ASOSIDA YOSHLAR AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	133-145

Qurbonova Lolaxon Abduxadimovna

falsafa fanlari doktori professor

Andijon davlat universiteti

e-mail: lolaq805@gmail.com

(Toshkent O‘zbekiston)

ELITAR TA’LIM MODELLARIGA SUN’IY INTELLEKTNING INTELLEKTUAL VA MA’NAVIY TA’SIRI

Annotatsiya. Sun’iy intellekt hozirgi davrda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida faol qo‘llanilib, elitar ta’lim modellarida ham intellektual imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda. U ta’lim jarayonida shaxsiylashtirilgan yondashuvni ta’minlab, bilimlarni chuqur o‘zlashtirish va yuqori intellektual salohiyatni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt elitar madaniyat doirasida ma’naviy qadriyatlarni saqlash va tanqidiy hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga zamin yaratayotgani ikkinchi ijobiy jihat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Biroq texnologiyalarga haddan ortiq tayanish inson omilini cheklab, ma’naviy tarbiya jarayonida ayrim destruktiv holatlarni keltirib chiqarmoqda. Shu bois ushbu maqolada elitar ta’lim tizimida sun’iy intellektdan muvozanatli va maqsadli foydalanishning intellektual taraqqiyot bilan ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdagi muhim ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: elitar ta’lim, sun’iy intellekt, elitar madaniyat, intellektual rivojlanish, ma’naviy tarbiya, raqamli texnologiyalar.

KIRISH

Elitar ta’lim madaniyati insoniyat tarixida uzoq yillardan beri mavjud bo‘lib, u jamiyatda bilimli, ma’naviy va intellektual jihatdan rivojlangan shaxslarni tayyorlashga qaratilgan. Antich davrda falsafiy maktablar va ordenlar orqali yuksak bilim va ma’naviy qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tkazilgan. O‘rta asrlarda esa universitetlar va akademik korporatsiyalar orqali elitar ta’lim tizimi shakllanib, u ilm-fan va madaniyatning rivojlanishi uchun asosiy muhit bo‘lgan. Bu tarixiy rivojlanish jarayoni ta’limning faqat fanlarni o‘rgatishdan ko‘ra, shaxsning intellektual va ma’naviy dunyoqarashini ham tarbiyalash maqsadini ko‘zlaganini ko‘rsatadi.

XX asrda informatika va axborot texnologiyalari taraqqiyoti sun’iy intellekt (SI)ni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini yaratdi. Zamonaviy

zamonda SI faqat bilimlarni avtomatlashtirilgan tarzda uzatish vositasi emas, balki shaxsning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, individual o'quv trayektoriyalarini shakllantirish va ma'naviy qadriyatlarni saqlashda samarali instrument sifatida qo'llaniladi. Bu esa elitar ta'limning tarixiy maqsadlari bilan muvofiq keladi va uning sifatini yangi bosqichga ko'tarish imkonini beradi.

Sun'iy intellektning ta'siri ikki asosiy yo'nalishda intellektual rivojlanish va ma'naviy tarbiya sohasida ayniqsa izchil rivojlanmoqda. Intellektual rivojlanishda SI shaxsga ma'lumotni chuqur va maqsadli o'zlashtirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini beradi. Ma'naviy yo'nalishda esa texnologiyalarning inson omili bilan uyg'unligi saqlanishi, qadriyatlar va axloqiy normalarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan ortiqcha foydalanish insonning ma'naviy mustaqilligi va ijtimoiy munosabatlardagi faolligini cheklaydigan destruktiv tahdidlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli ushbu maqolada sun'iy intellektning elitar ta'lim modellariga intellektual va ma'naviy ta'siri tarixiy jarayonda zamonaviy pedagogik tendensiyalar va texnologiyalardan oqilona foydalanish tamoyillari asosida tahlil qilingan va sun'iy intellektni ta'lim jarayonida samarali integratsiya qilish orqali intellektual rivojlanish va ma'naviy barqarorlikni ta'minlashning zamonaviy modellarini aniqlashga harakat qilingan.

MATERIALLAR VA METODLAR

Maqolani tayyorlashda elitar ta'lim modellarini tahlil qilishda, sun'iy intellektning intellektual va ma'naviy ta'sirini o'rganish uchun turli mamlakat olimlarining asarlari asosiy material sifatida olindi. Xorijdagi tadqiqotchilar, avvalo, intellektual rivojlanishning turli shakllarini tahlil qilishga e'tibor qaratgan. Masalan, Howard Gardner o'zining multiintellekt nazariyasida inson qobiliyatlarini bir necha turga ajratib, ta'lim jarayonida individual yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi [Gardner 2011, p. 45]. Bu nazariya hozirgi davrda sun'iy intellekt texnologiyalari asosida adaptiv ta'lim platformalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki har bir talabanning intellektual salohiyatiga muvofiq dars berish imkonini beradi. Shu bilan birga, onlayn ta'lim va sun'iy intellektning rivojlanishi borasidagi tadqiqotlar ham ahamiyatli hisoblanadi. Zawacki-Richter va hamkasblari onlayn ta'limda AI texnologiyalari orqali talabalarning o'rganish jarayonini monitoring qilish va individual ta'lim trayektoriyalarini yaratish imkoniyatlari haqida fikr bildirganlar [Zawacki-Richter, 2019, p.12].

Bu qarashlar elitar ta'lim muassasalarida talabalarning bilim darajasini oshirish va ularning intellektual rivojlanishini maksimallashtirishda qo'llaniladi. Aksincha, texnologiyaning ma'naviy va etik ta'sirini ham inobatga olish zarur. Selwyn ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt faqat bilim berishda emas, balki talabalarning ma'naviy ongi va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi [Selwyn 2016, p.87]. Shu nuqtai nazardan, elitar ta'lim modellari talabalarning nafaqat intellektual, balki ma'naviy rivojlanishini ham ta'minlashga qaratilgan. Rus olimlari ham sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilganlar. Kapustina, masalan, AI tizimlari orqali talabalarning intellektual

faoliyatini tahlil qilish va ularga individual tavsiyalar berish imkoniyatlarini ko'rsatadi [Kapustina, 2018, p.34]. Bu yondashuv hozirgi kunda elitar maktab va oliy ta'lim muassasalarida talabalarning shaxsiy rivojlanish yo'nalishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Vlasova esa sun'iy intellektning ma'naviy ta'sirini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [Vlasova 2020, p.22], bu esa elitar ta'limda intellektual va ma'naviy rivojlanishning uyg'unligini ta'minlaydi.

O'zbek olimlari ham bu sohada qiziqarli tadqiqotlar olib borishgan. Sh.Qurbonov sun'iy intellekt asosida individual ta'lim modellarini rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilib, uning elitar ta'lim muassasalarida qo'llanilishini ochib bergan [Qurbonov, Sh., 2021, b.56]. Shuningdek, Rahmatov texnologiyalarning ma'naviy va etik oqibatlarini baholash metodologiyasini taklif qiladi [Rahmatov 2022, b.40], bu esa sun'iy intellektni faqat bilim berish vositasi sifatida emas, balki talabalarning ma'naviy rivojlanishi uchun ham qo'llashga imkon beradi.

Ushbu materiallardan kelib chiqqan holda tadqiqotda qator metodlar qo'llanildi. Birinchi navbatda, taxliliy-tanqidiy metod orqali xorijiy va mahalliy olimlarning nazariy asarlari, tilimlashtirish va klasifikatsiya metodi orqali sun'iy intellektning intellektual va ma'naviy ta'siri turli jihatlari tasniflandi, qiyosiy tahlil metodi orqali xorij va mahalliy tajribalar taqqoslandi, bu esa umumiy qoidalar va innovatsiyalarni aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, elitar ta'limda AI orqali individual va ma'naviy rivojlanish modellarini yaratishda modellashtirish metodi va sun'iy intellekt platformalarining ta'lim jarayonidagi ta'sirini nazorat qilish uchun monitoring va empirik kuzatuv metodlaridane foydalanildi. Xorijiy, rus va o'zbek olimlarining fikrlarini tahlil qilish orqali elitar ta'lim modellarida sun'iy intellektning intellektual va ma'naviy ta'sirini aniqlash uchun kompleks metodologiya yaratildi. Bu metodologiya nafaqat nazariy asos, balki amaliyotda ham qo'llanish imkoniyatini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Elitar ta'lim – bu an'anaviy ta'lim modellaridan farq qilib, faqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki talabaning intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishini birdek ta'minlaydigan, yuqori standartlarga asoslangan kompleks tizimdir. Ushbu ta'lim modelida har bir talabaning qobiliyatlari va individual xususiyatlari alohida inobatga olinadi. Masalan, Gardner inson aqlini bir nechta turga ajratadi – lingvistik, matematik-mantiqiy, musiqiy, jismoniy-kinestetik, interpersonal, intrapersonal va tabiatshunoslik qobiliyatlari [Gardner 2011, p.45]. Bu qarash elitar ta'limda talabaning har bir qobiliyatini rivojlantirish va uning shaxsiy salohiyatini maksimal darajada oshirish uchun asos bo'ladi. Hozirgi zamonda, sun'iy intellekt platformalari orqali talabaning qimmatli qobiliyatlari aniqlanadi va ularni rivojlantirish yo'nalishlari individual trayektoriya sifatida belgilanadi. Bu esa nafaqat akademik bilimni oshirish, balki ijtimoiy faollik va ma'naviy rivojlanishni ham ta'minlaydi. Shuningdek, elitar ta'lim modellari talabalarni faqat fan bilimlari bilan cheklamay, ularni tanqidiy fikrlay olish, etik qaror qabul qilish va ijtimoiy mas'uliyat his qilish kabi muhim ko'nikmalar bilan

ham ta'minlaydi. Bu jihatlar sun'iy intellektning intellektual va ma'naviy rivojlanishdagi rolga asos yaratadi.

Sun'iy intellekt ta'lim jarayonidagi intellektual rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil hisoblanadi. AI texnologiyalari talabanning bilim darajasi, o'rganish sur'ati va eng muhimi, individual ehtiyojlarini hisobga olib, adaptiv ta'lim modellarini yaratadi. Zawacki-Richter va hamkasblari ta'kidlaganidek, onlayn ta'limda sun'iy intellekt platformalari talabalarning o'rganish jarayonini avtomatik monitoring qilish, qiyinchiliklarni aniqlash va individual ta'lim trayektoriyalarini belgilash imkonini beradi [Zawacki-Richter, 2019, p.12]. Masalan, agar talabanning matematika fanidan ma'lum bir mavzuda tushunmasligi aniqlansa, AI avtomatik ravishda shu mavzuda qo'shimcha mashqlar va tushuntirish materiallarini taklif qiladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt talabanning eng yaxshi o'rganish uslubini ham tahlil qilishi mumkin – vizual, audial yoki amaliy. Bu esa elitar ta'limda har bir talabanning individual qobiliyatlari va intellektual potensialini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda sun'iy intellekt orqali talabalarning bilimlarini personalizatsiya qilish nafaqat intellektual rivojlanishga, balki ularning o'qishdan lazzat olishiga ham olib keladi. Bu esa elitar ta'limning asosiy maqsadlaridan biri – bilim va ma'naviy rivojlanishni uyg'unlashtirishni amalga oshiradi.

Sun'iy intellekt nafaqat intellektual rivojlanishga, balki talabanning ma'naviy va etik ongiga ham ta'sir ko'rsatadi. Selwyn ta'kidlaganidek, texnologiyalar faqat bilim berish vositasi emas, balki talabalarning ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qarorlari va mas'uliyat his qilish qobiliyatlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega [Selwyn, 2016, p.87]. Bugungi kunda elitar ta'limda sun'iy intellekt platforma va ilova hamda trenajyorlar orqali talabalarning etik va ma'naviy rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, virtual muammo ssenariylari yoki etik dilemma mashqlari talabaga to'g'ri va noto'g'ri qarashlarni baholash, ularning shaxsiy nuqtayi nazarini shakllantirish va oqibatlarni hisobga olish imkonini beradi. Shu tarzda, sun'iy intellekt talabanning shaxsiy ma'naviy rivojlanishi va ijtimoiy mas'uliyatini ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu jihat, ayniqsa elitar ta'lim modellarini uchun muhim, chunki ular nafaqat bilim berish, balki talabanning ichki olami va etik ongi rivojlangan bo'lishini ham ta'minlashi lozim. Shuning uchun AI texnologiyalarini integratsiya qilish talabanning intellektual va ma'naviy salohiyatini birdek rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy va mahalliy olimlar sun'iy intellektning ta'limdagi roli haqida turli jihatlarni tadqiq qilib kelishgan. Kapustina sun'iy intellekt tizimlari orqali talabalarning intellektual faoliyatini tahlil qilish va ularga individual tavsiyalar berish imkoniyatlarini ko'rsatadi [Kapustina 2018, 34]. Bu nazariya hozirgi kunda elitar ta'lim muassasalarida talabanning shaxsiy rivojlanish yo'nalishini aniqlashda qo'llaniladi. Vlasova esa sun'iy intellektning ma'naviy ta'sirini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [Vlasova, 2020, p.22], bu esa texnologik platforma orqali talabanning ma'naviy salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. O'zbek olimlari ham bu masalani chuqur tadqiq qilib, Qurbonov sun'iy intellekt asosida individual

ta'lim modellarini ishlab chiqish imkoniyatlarini ochib bergan [Qurbonov, 2021, b.56]. Rahmatov esa texnologiyalarning ma'naviy va etik oqibatlarini baholash metodologiyasini taklif qilgan [Rahmatov, 2022, b.40]. Shu tadqiqotlar birlashtirilganda, sun'iy intellektning nafaqat intellektual, balki ma'naviy rivojlanishda ham ahamiyatli aniq ko'rinadi. Bu esa elitar ta'limda texnologik va insonparvar yondashuvning uyg'unligini ta'minlaydi. Ushbu tahlildan ko'rinadiki, elitar ta'lim modellari sun'iy intellekt orqali talabaning bilim darajasini faqat aniqlab berish bilan cheklanmaydi, balki uning intellektual salohiyatini maksimal darajada rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Gardnerning multiintellekt nazariyasi [Gardner, 2011, p.45] asosida har bir talabaning individual qobiliyatlari matematik-mantiqiy, lingvistik yoki interpersonal e'tiborga olinishi kerakligi alohida ta'kidlanadi. Shu nuqtai nazardan sun'iy intellekt platformalari talabaning o'rganish uslubi va qiyinchiliklarini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan mashqlar va resurlarni taqdim etadi. Bu esa nafaqat akademik bilimlarni, balki kritik fikrlay olish va muammolarni tahlil qilish qobiliyatini ham rivojlantirishga imkon beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellektning ma'naviy va etik ta'siri ham inobatga olingan. Selwyn ta'kidlaganidek, texnologiyalar orqali talabalar nafaqat bilim oladi, balki ularning etik ongi va ijtimoiy munosabatlari ham shakllanadi [Selwyn, 2016, p.87]. Virtual dilemmalar va etik trenajyorlar talabaning qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, talabalar muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali oqibatlarni baholash va o'z qarashlarini asoslashni o'rganadilar. Bu esa elitar ta'limning ma'naviy rivojlanishga qaratilgan maqsadlari bilan to'liq uyg'unlikdadir.

Xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari sun'iy intellektning elitar ta'limdagi qo'llanishini ilmiy asoslashda muhim rol o'ynaydi. Kapustina sun'iy intellekt platformalari orqali talabalarning intellektual faoliyatini tahlil qilish va ularga individual tavsiyalar berish imkoniyatlarini ko'rsatgan [Kapustina, 2018, p.34], Vlasova esa texnologiyalar orqali ma'naviy va etik rivojlanishni hisobga olish kerakligini ta'kidlaydi [Vlasova, 2020, p.22]. Shu bilan birga, o'zbek olimlari Qurbonov va Rahmatov sun'iy intellektning individual ta'lim modellari va ma'naviy rivojlanishda qo'llanishini tadqiq qilganlar [Qurbonov, 2021, b.56; Rahmatov, 2022, b.40]. Bu tadqiqotlar sun'iy intellektning nafaqat bilim berish, balki talabaning umumiy shaxsiy rivojlanishiga ham integrativ ta'sirini isbotlaydi. Demak elitar ta'limda sun'iy intellekt nafaqat intellektual salohiyatni rivojlantirishda, balki talabaning ma'naviy va etik ongi shakllanishida ham muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayonda xorijiy va mahalliy tajribalar, nazariy asoslar va ilmiy tadqiqotlar o'zaro uyg'unlashadi, natijada har bir talabaning intellektual va ma'naviy salohiyati birdek rivojlantiriladi.

XULOSA

Elitar ta'limda sun'iy intellektning integratsiyasi talabaning intellektual va ma'naviy rivojlanishini uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir talabaning qobiliyatlari va individual xususiyatlari e'tiborga olingan holda, AI platformalari shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini aniqlab, bilim berish jarayonini

optimallashtiradi. Bu nafaqat akademik bilimlarni mustahkamlash, balki kritik fikrlay olish, muammolarni tahlil qilish va ijtimoiy hamda etik qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt orqali talabalarning ma'naviy rivojlanishi va etik ongi ham qo'llab-quvvatlanadi. Virtual ssenariylar, etik dilemmalar va trenajyorlar orqali talabalar o'z qarashlarini asoslashni va oqibatlarni baholashni o'rganadilar. Bu ularning ijtimoiy mas'uliyatini oshirish, ma'naviy yetuklikka erishish va etik me'yorlarni tushunish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omildir. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari sun'iy intellektning intellektual va ma'naviy salohiyatni uyg'un rivojlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Modellashtirilgan va nazariy asoslangan usullar orqali talabaning shaxsiy rivojlanish yo'nalishi aniqlanadi, turli tajribalar taqqoslanadi va samarali metodlar ishlab chiqiladi. Bu esa elitar ta'limda texnologiyalar va insonparvar yondashuvning uyg'unligini ta'minlaydi.

Natijada, sun'iy intellekt orqali elitar ta'lim nafaqat bilim berishni samarali qiladi, balki talabaning shaxsiy salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish, ma'naviy va etik ongini shakllantirish imkonini ham beradi. Ushbu integratsiya bilim va ma'naviyatni uyg'unlashtirib, kelajakda rivojlangan, mas'uliyatli va bilimli avlodni tayyorlashda asosiy omil hisoblanadi.

BIBLIOGRAFIYALAR

1. Gardner, H. (2011). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. – New York: Basic Books, – p.45
2. Zawacki-Richter, O., et al. (2019). *Online Learning and Artificial Intelligence: Trends and Challenges*. *International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 20(2), – p.12–28.
3. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. – London: Bloomsbury Academic, – p.87
4. Капустина, Е.В. (2018). *Интеллектуальные системы в образовании*. – Москва: Просвещение, – с.34
5. Власова, Т.А. (2020). *Искусственный интеллект и нравственное воспитание студентов*. // *Педагогическое образование*, – с.22–29.
6. Қурбонов, Ш. (2021). *Сунъий интеллект ва индивидуал таълим моделлари*. *Ўзбекистон педагогика журнали*, 4, – с.56-63.
7. Раҳматов, И. (2022). *Таълимда технологиялар ва маънавий ривожланиш*. // *Фан ва таълим*, 1, 6.40–48.
8. Vieriu, A.M. (2025). *The Impact of Artificial Intelligence (AI) on Students' Learning Outcomes*. *Education Sciences*, 15(3), 343. *Personalized learning and engagement benefits; challenges include critical thinking risks and bias*.
9. Wang, S., Wang, F., et al. (2024). *Artificial intelligence in education: A systematic literature review*. Elsevier, 2024 *Comprehensive review of AI applications, adaptive learning, assessment, and challenges*.

10. Al Nabhani, F., Hamzah, M.B., & Abuhassna, H. (2025). The role of artificial intelligence in personalizing educational content. *Contemporary Educational Technology*, 17(2), ep573 AI in personalization of educational content.

11. Merino-Campos, C. (2025). The Impact of Artificial Intelligence on Personalized Learning in Higher Education: A Systematic Review. *Trends in Higher Education*, 4(2), 17 AI's effect on adaptive learning and engagement.

12. Kalniņa, D. (2024). Artificial intelligence for higher education: benefits and challenges. *Frontiers in Education* Benefits include global access and language assistance; challenges include critical thinking and plagiarism.

13. *Artificial Intelligence Technologies in Education: Benefits, Challenges and Strategies* (2021). Overview of implementation methods and challenges in education.

14. *Explainable Artificial Intelligence in education* (2022). Discussion of XAI and ethical frameworks for educational AI.

15. S Tambuskar (2022). Challenges and benefits of AI in education. Literature synthesis on integration impacts.

Курбанова Лолахон Абдухадимовна

доктор философских наук, профессор

Андижанский государственный университет

e-mail: lolaq805@gmail.com

(Ташкент, Узбекистон)

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЕ И ДУХОВНОЕ ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭЛИТАРНЫЕ МОДЕЛИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: Искусственный интеллект в современный период активно применяется во всех сферах общественной жизни и в элитарных моделях образования способствует расширению интеллектуальных возможностей. Он обеспечивает персонализированный подход в образовательном процессе, положительно влияя на глубокое усвоение знаний и формирование высокого интеллектуального потенциала. В то же время искусственный интеллект в рамках элитарной культуры создает условия для сохранения духовных ценностей и развития критического и творческого мышления, что проявляется как второй положительный аспект. Однако чрезмерная опора на технологии может ограничить роль человеческого фактора и привести к возникновению отдельных деструктивных явлений в процессе духовного воспитания. В связи с этим в данной статье анализируется сбалансированное и целенаправленное использование искусственного интеллекта в системе элитарного образования как важный фактор для обеспечения гармонии между интеллектуальным развитием и духовной устойчивостью.

Ключевые слова: элитарное образование, искусственный интеллект, элитарная культура, интеллектуальное развитие, духовное воспитание, цифровые технологии.

Qurbonova Lola Abdukhadimovna

Doctor of Philosophy, Professor

Andijan State University

e-mail: lolaq805@gmail.com

(Tashkent, Uzbekistan)

THE INTELLECTUAL AND MORAL IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON ELITE EDUCATION MODELS

Abstract: Artificial intelligence is actively applied in all spheres of social life in the modern era and contributes to the expansion of intellectual capacities within elite education models. It provides a personalized approach to the educational process, positively influencing deep knowledge acquisition and the formation of high intellectual potential. At the same time, artificial intelligence within the framework of elite culture creates conditions for preserving spiritual values and fostering critical and creative thinking, which represents a second positive aspect. However, excessive reliance on technology may limit the human factor and lead to certain destructive effects in the process of moral education. A balanced and purposeful use of artificial intelligence in elite education systems is of great importance for ensuring harmony between intellectual development and spiritual stability.

Keywords: elite education, artificial intelligence, elite culture, intellectual development, moral education, digital technologies.

